TASHMETOV TUXTASIN XUDOYBERGANOVICH

# GLOBAL O'ZGARISHLAR DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI VA UNI ZARARLI G'OYALARDAN HIMOYALASHNING DOLZARBLASHUVI



Monografiya

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TASHMETOV TUXTASIN XUDOYBERGANOVICH

# GLOBAL O'ZGARISHLAR DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI VA UNI ZARARLI G'OYALARDAN HIMOYALASHNING DOLZARBLASHUVI

Monografiya

«GRAND KONDOR PRINT»
TOSHKENT- 2024

UO‘K: 826.228.37
BBK: 38.8-6ya78
T 64

**Tashmetov T.X.**
Global o‘zgarishlar davrida yoshlar ma’naviyati va uni zararli g‘oyalardan himoyalashning dolzarblashuvi [Monografiya]. — T.: “GRAND KONDOR PRINT”, 2024. 232 b.

**Mas’ul muharrir:**

**Sh.N.Turayev – falsafa fanlari doktori (DSc).**

**T a q r i z ch i l a r:**

**D.T.Norqulov falsafa fanlari doktori, professor**

**O‘.G‘.Tilavov falsafa fanlari doktori, professor**

**N.A.Nazarov, tarix, falsafa va siyosiy fanlari doktori, professor.**

***Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashining 2024-yil 26-sentyabr № 2-sonli majlis bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.***

ISBN 978-9910-9290-6-9

© Tashmetov T.X. 2024
© « GRAND KONDOR PRINT» 2024

## АННОТАЦИЯ

Ushbu monografiyada globallashuv davrida yoshlar ma'naviyati va uni zararli g'oyalardan himoyalashning g'oyaviy-nazariy asoslari, yoshlarni ma'naviy tarbiyalash tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, globallashuv va yoshlarni ma'naviy tarbiyalashning zamonaviy konseptual masalalari, globallashuv sharoitida dunyoning mafkuraviy manzarasini aniqlashning ijtimoiy-ma'naviy omillari tadqiq etilgan. Global o'zgarishlar davrida yoshlarni ma'naviy tarbiyalash jarayonlarining dinamikasi va evolyutsiyasi, global inqiroz shakllari, ularning o'zaro bog'liqligi, globallashuv jarayonlarida millat va milliy o'zlikni anglash masalalari, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish jarayonlarining dinamikasi va evolyutsiyasi ochib berilgan. Yoshlarni yot va zararli g'oyalardan himoyalashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, axborotlashgan jamiyatda yoshlarni zararli g'oyalardan himoyalashning muhim jihatlari, yoshlarni itimoiy tarmoqlardagi zararli g'oyalardan himoya qilishning g'oyaviy asoslari, yoshlarni ma'naviy yuksaltirishda axborot hurujlarining oldini olish omillari ishlab chiqilgan. Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda g'oyaviy negizlariga tayanishning istiqbollari, zamonaviy jamiyatda manipulyatsiyaning tizimli hodisa sifatida namoyon bo'lishi va ularga qarshi chora-tadbirlar, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish strategiyasining amaliy ta'sirini ta'minlashning samarali usullari ko'rsatilgan. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda g'oyaviy negizlariga tayanishning istiqbollari tahlil qilingan.

Shuningdek, mazkur asarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida yoshlarni ma'naviy tarbiyalash asosida ularni zararli g'oyalardan himoyalashning ba'zi jihatlari to'g'risida atroflicha fikr yuritilgan.

Monografiya ma'naviyat, falsafa, etnologiya, sotsiologiya va tarix yo'nalishida ta'lim olayotgan bakalaviriat va magistratura talabalariga, oliy ta'lim tizimining ilmiy-pedagogik kadrlariga, ko'p millatli jamiyat va jamoat sharoitida yoshlarni ma'naviy tarbiyalash asosida ularni zararli g'oyalardan himoyalashning masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan izlanuchilar hamda ushbu jarayonga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

## АННОТАЦИЯ

В данной монографии исследованы идейно-теоретические основы духовности молодежи и ее защиты от вредных идей в эпоху глобализации, понятие и сущность духовного воспитания молодежи, современные концептуальные вопросы глобализации и духовного воспитания молодежи, социально-духовные факторы определения идеологической картины мира в условиях глобализации. Раскрыты динамика и эволюция процессов духовного воспитания молодежи в эпоху глобальных изменений, формы глобальных кризисов, их взаимосвязь, вопросы национальности и национального самосознания в процессах глобализации, динамика и эволюция процессов повышения духовности молодежи. Разработаны возможности использования информационно-коммуникационных технологий в защите молодежи от чуждых и вредных идей, важные аспекты защиты молодежи от вредных идей в информированном обществе, идейные основы защиты молодежи от вредных идей в социальных сетях, факторы предупреждения информационных атак в духовном возвышении молодежи. Показаны перспективы опоры идеологических основ духовного воспитания молодежи, проявления манипуляций как системного явления в современном обществе и меры противодействия им, эффективные методы обеспечения практического воздействия стратегий укрепления идеологического иммунитета на повышение нравственности молодежи. Проанализированы перспективы опоры на свои идеологические основы в повышении нравственности молодежи.

Также в данной работе на основе стратегии развития нового Узбекистана всесторонне отражены нравственные факторы и идеологические факторы воспитания молодежи.

Монография предназначена для студентов бакалавриата и магистратуры , изучающих духовность, философию, этнологию, социологию и историю, а также научных и научно-педагогических работников системы высшего образования, исследователей, проводящих научные исследования по совершенствованию идеологических факторов подъема духовности в многонациональном обществе, и тех, кто заинтересован в этом процессе.

## ABSTRACT

This monograph examines the ideological and theoretical foundations of youth spirituality and its protection from harmful ideas in the era of globalization, the concept and essence of spiritual education of youth, modern conceptual issues of globalization and spiritual education of youth, socio-spiritual factors determining the ideological picture of the world in the context of globalization. The dynamics and evolution of the processes of spiritual education of youth in the era of global changes, the forms of global crises, their interrelation, issues of nationality and national identity in the processes of globalization, the dynamics and evolution of the processes of increasing youth spirituality are revealed. The possibilities of using information and communication technologies in protecting young people from alien and harmful ideas, important aspects of protecting young people from harmful ideas in an informed society, the ideological foundations of protecting young people from harmful ideas in social networks, factors of preventing information attacks in the spiritual elevation of young people have been developed. The prospects of supporting the ideological foundations of the spiritual education of youth, manifestations of manipulation as a systemic phenomenon in modern society and measures to counteract them, effective methods of ensuring the practical impact of strategies to strengthen ideological immunity on improving the morality of youth are shown. The prospects of relying on their ideological foundations in improving the morality of young people are analyzed.

Also, in this work, on the basis of the development strategy of the new Uzbekistan, there is a comprehensive reflection on the moral factors and ideological factors of raising the youth.

The monograph is intended for bachelor and master students studying Spirituality, Philosophy, Ethnology, Sociology and History, furthermore, scientific and scientific-pedagogical personnel of the higher education system, researchers conducting scientific research on the improvement of ideological factors in rising spirituality in multinational society and public conditions, and those interested in this process.

## KIRISH

Jahonda globallashuv jarayonlari ta'sirida milliy ma'naviyatning o'rni, yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashning ahamiyati hamda innovatsion texnologiyalari takamillashuviga e'tibor qaratilmoqda. hozirgi taraqqiyotining muhim atributlaridan biri globallashuvdir. Bugun dunyo yagona va ulkan, muttasil o'zgarib turgan dinamik global tizimni tashkil etmoqda va bu tizimdan tashqarida biror mamlakat yoki millat qolmadi. XXI asrda globallashuv insoniyat ijtimoiy integratsiyasining yangi bosqichi sifatida namoyon bo'lmoqda. Dunyo hamjamiyati o'z taraqqiyotida bir-biri bilan bunchalik kuchli bog'lanmagan va bir butunlikka intilmagan edi. Bunday bog'lanish, bir tomondan, jamiyat taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mazkur ob'ektiv jarayonga sub'ektlarning aralashuvi oqibatida millatlarning mustaqilligi, tarixiy qadriyatlari, madaniy-ma'naviy identifikatsiyasini saqlab qolishi borasida bir qator muammolar yuzaga chiqmoqda. G'oyaviy xilma-xillikka erishishga bo'lgan intilishlar natijasida yoshlarning ongida milliy ruhdagi g'oyalar bilan bir qator global makonda turli buzg'unchi g'oyalar ta'sir ko'rsatmoqda. Yuzaga kelgan bunday shart-sharoit milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishning innovatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish mexanizmlarini va hayot sur'atlarining uzluksiz jadallashuviga nisbatan ijtimoiy hodisalarning u yoki bu darajada transformatsiyalashuvini ilmiy-nazariy va falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etishni taqozo etmoqda.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy-falsafiy tadqiqotlarda globallashuvning mohiyati, tendensiyalari, millatlarning ijtimoiy- madaniy haetiga ziddiyatli ta'sirini falsafiy jihatdan tahlil qilish dolzarb bo'lib qolmoqda. Shunga ko'ra, sub'ektlar uchun globallashuv sharoitida yashash va unda faol ishtirok etishning milliy manfaatlarga mos keluvchi yo'llarini, jamiyatning globallashuv chaqiriqlariga iqtisodiy- siesiy, madaniy-ma'naviy yangilanish orqali javob bera olishini falsafiy tadqiq etish zarurati ortib bormoqda. Globallashuv sharoitida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning yemirilish jarayonlarining milliy ruhdagi g'oyalarning inqiroziga sabab bo'luvchi omillar, ularni bartaraf etish mexanizmlari, usul va yo'llarini chuqur

o'rganish, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda taraqqiyot falsafasining (development philosophy) zamonaviy paradigmalaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonning jahonda va Markaziy Osiyo ijtimoiy-madaniy makonida o'zini namoyon eta olishi uning globallashuv, demokratlashuv, modernizatsiya va innovatsiya jarayonlarida faol ishtirokini taqozo etadi.

Globallashuv sharoitida millat manfaatlarini himoya qilishning strategik yo'li jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy yangilanishidan iborat. Yangilanish jarayoni jamiyatdan globallashuvga qo'shilishning progressiv milliy mexanizmlarini ishlab chiqish, uning imkoniyatlaridan pragmatik foydalanish, globallashuvning dinamikasi va tendensiyalariga moslashib borish va salbiy oqibatlariga qarshi kurasha olish potensialini yuzaga chiqarishni taqozo etadi. Jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlari iqtisodiy islohotlarni, milliy qadriyatlarni innovatsion taraqqiyot bilan uyg'unlashuvini, moddiy boyliklar yaratishga qaratilgan faoliyatning ma'naviy qo'llab-quvvatlanishini talab qiladi. Bu nuqtai nazardan globallashuv sharoitida jamiyatning ustuvor yo'nalishlari iqtisodiy va siyosiy sohalar bilan bir qatorda ma'naviyat sohasining yangilanishini o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekiston strategiyasi "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" bosh g'oyasi asosida yosh avlod ongi va qalbiga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ularning har tomonlama rivojlangan, zamonaviy bilimlarni egallagan va yuksak ma'naviyatli kasb egasi bo'lishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, "...mamlakatimizda ma'naviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib, kelgusida, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishimiz kerak"[1], dolzarb jihatlaridan biri bo'lmoqda. Mamlakatimizda xalqimizning boy ma'naviy merosi va dunyo tamaddunining eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan avlodni shakllantirish, globallashuv

[1] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б 267.

**Tadqiqotning maqsadi** global o'zgarishlar davrida yoshlar ma'naviyati va uni zararli g'oyalardan himoyalashning dolzarblashuvi bilan bog'liq jarayonlarining mafkuraviy jihatlarini ilmiy-falsafiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

global o'zgarishlar davrida yoshlar ma'naviyati va uni zararli g'oyalardan himoyalashning dolzarblashuvi bilan bog'liq jarayonlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tizimli tahlil etish hamda ma'naviyat va globallashuv tushunchalarining mantiqiy jihatdan uyg'unligi falsafiy nuqtai nazardan ochib berilgan;

ma'naviy yangilanish globallashuvning imkoniyatlaridan foydalanish, ularga moslashish va salbiy oqibatlariga qarshi kurashishning zarur omili ekanligi, milliy va global ma'naviyat uyg'unligini ta'minlashning omillari ishlab chiqilgan.

# I BOB. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI VA UNI ZARARLI G'OYALARDAN HIMOYALASHNING G'OYAVIY-NAZARIY ASOSLARI

## 1.1-§. Yoshlarni ma'naviy tarbiyalash tushunchasi va uning mazmun-mohiyati

XX asr oxirlari G'arb falsafasi fanida aqliy tafakkurning cheklanganini tushunib yetish jarayoni boshlangan edi. Bu esa, o'z navbatida, bilishning boshqa shakllarini izlab topishda katta ishlarni amalga oshirishga olib keldi. Mazkur ishlar chindan ham insoniyat anglovining aqliydan boshqa shakllari ham mavjudligini va ular mantiqiy tafakkurdan past yoki yuqori darajalarni tashkil etishi mumkinligini tushunish uchun asos yaratdi. Bu esa, o'z navbatida, ratsionalistik va ssientistik konsepsiyalar hukmron bo'lgan davrda payg'ambarlar va avliyolarning sirli bilimlari mantiqiy va hatto dialektik tafakkurdan yuqori ekaniga shubha va hatto inkor nazari bilan qaralgani noto'g'ri bo'lganini tushunish imkonini berdi[52]. Darhaqiqat, inson kamolotini fikrsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, jamiyat tarixini ham ma'naviyatsiz tushuntirib bo'lmaydi. Shunday ekan, ma'naviyatning ma'no va mazmunini tushunmasdan turib, o'z hayotimizning ma'nosini izlashga urinishimizda ma'no yo'q.

Shu ma'noda, "ma'naviyat" tushunchasining mazmun-mohiyatiga to'xtalib o'tsak. Ma'naviyat (arab. ma'no, ma'nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy hodisa[53] yekanligi ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'atida o'z ifodasini topadi.

Yuqoridagi "ma'naviyat" tushunchasining tahliliy uslubiga tayangan holda [illegible] tushunchalarini farqlab olishga harakat qilmog'imiz lozim. Aslida har bir tushunchaning faqat o'zigagina tegishli bo'lgan "mazmun yuki" bor. Ularni bir-biridan farqlamaslik, birini ikkinchisi bilan almashtirib ishlatish, sinonim deb [illegible] kishini chalg'itadi va oxir oqibat haqiqatga emas, yolg'onga olib kelishi

---

[52] [illegible] М. [illegible] разумная.- Москва. Мир географии, 2002; Тихоплав В.Ю., Тихоплав Т.С ларнинг [illegible] Начало начал, Санкт-Петербург, ИД Весь, 2003, Великий переход, [illegible] Жизнь на прокат, Санкт-Петербург, ИД Весь, 2002; kitoblaridan va Chet ellar va [illegible] ko'plab shu kabi kitob va jurnallardan olish mumkin.

[53] [illegible] луғати. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашри, [illegible]

holatda mamlakat boshi berk ko'chaga kirib qolishi mumkin. Insoniyatning ko'p asrlik tarixi shundan dalolat beradi. Har qaysi xalq yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo'lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg'otishda, o'ziga qo'shimcha kuch-quvvat va madad topishda umumiy, yagona maqsad va orzu-intilish ifodasi bo'lgan milliy g'oyani tayanch va suyanch deb biladi.

**Birinchi bob yuzasidan xulosalar**

1. Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda xalqimizning ongu tafakkurida o'z o'tmishi, tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish kun sayin ortmoqda. Shu boisdan, yoshlar ongi va qalbida yuksak ma'naviyatni shakllantirishning ilmiy-nazariy jihatlarini amaliyot bilan uyg'un holda tadqiq etish lozim.

2. Global o'zgarishlar davri hayot sur'atlarining beqiyos jadallashuviga, mamlakatlararo madaniyatlar to'qnashuviga jamiyatdagi barcha sohalarning yaxlitlashuvi, universallashuvi va integratsiyalashuvi bilan bog'liq bo'lgan jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Global jarayonlar tadriji uning "ma'naviyat", "milliy g'oya" va "innovatsion texnologiyalar" tushunchalari bilan bevosita aloqadorligini ko'rsatmoqda. Globallashuv jarayonida ma'naviyat targ'iboti har doimgidan ham dolzarb masalaga aylandi hamda targ'ibot jarayonlariga zamonaviy, innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilish zarurati kuchaymoqda.

3. Global va milliy ma'naviyatning o'zaro dialektik munosabati olamning yagonaligi va turli-tumanligi kontekstida qaralishi zarur. Global ma'naviyat milliy ma'naviyatlar sinteziga asoslanadi va turli-tumanlikdan iborat bir xillikni ifodalaydi. Milliy ma'naviyat o'zini global ma'naviyatga daxldorligi orqali namoyon etadi.

4. Insonning yetuklikka erishuvi haqidagi tasavvurlar har qanday davrda ham madaniy-ma'naviy g'oyalar, konsepsiyalarning asosini tashkil etgan. Unda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar shaxsni komillikka va jamiyatni ma'naviy poklanishga da'vat etadi.

# II BOB. GLOBAL O‘ZGARISHLAR DAVRIDA YOSHLARNI MA’NAVIY TARBIYALASH JARAYONLARINING DINAMIKASI VA EVOLYUTSIYASI

## 2.1-§. Global inqiroz shakllari, ularning o‘zaro bog‘liqligi

Jahonda ro‘y berayotgan g‘oyaviy jarayonlar, mavjud mafkura shakllari, ularning mohiyati, maqsadlari va o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq holat, xususiyat va faoliyatini yaxlit tarzda aks ettiruvchi tushuncha. Bugungi dunyo yaxlitlikni tashkil etsada, undagi mintaqa va davlatlar, millat va xalqlar tarixiy shart-sharoit, jo‘g‘rofiy joylashuvi, geostrategik holatiga ko‘ra turli mavqega ega. Hozirgi davr – dunyoda g‘oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, olimlar Yerda yagona sivilizatsiya qaror topishi xususida gapira boshlagan va, A.Toynbining ta’biri bilan aytganda, insoniyat, “umumiy uy”, “umumiy taqdir” va umumiy tashvishlar bilan yashashga kirishayotgan,[108] bir so‘z bilan aytganda, globallashuv jarayonlari sodir bo‘layotgan zamonda yashamoqdamiz.

Shunday ekan, ma’naviyat masalasi ham endilikda nafaqat milliylik, balki globallik xususiyatini kasb etadi. Lekin, globallashuv jarayoni N.Jo‘rayev[109] to‘g‘ri qayd etganiday, hozircha faqat qandaydir mavhum ijobiy jihatlari bilangina emas, balki ko‘proq “hozirgi davr global muammolari”ni keltirib chiqargani va, hatto “sovuq urush bilan almashgan”[110] boshqa varintdagi urush ekani alohida ta’kidlanmoqda. Ko‘pchilik mutafakkirlar esa bu davrni xatto global inqirozlar (krizislar) davri deb atamoqdalar. “XX asr inqirozni kuchli his etish bilan boshlangan edi va u shu hissiyot bilan poyoniga yetdi”,[111] - deb yozadi, masalan, rus faylasufi S.I.Dudnik. “Biz barcha jihatlardan qaraganda juda murakkab davrda yashayapmiz, - deydi L.I.Belyaev. – Bu davr planetadagi hayotni saqlab qolish uchun avvalgi tafakkur paradigmasini, inson hayotiy faoliyat maqsadini

---

[108] Jo‘rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent. Ma’naviyat, 2008 – B.221.
[109] Jo‘rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.459.
[110] Otamuratov S. Globallashuv va millat. T., 2008. Yangi asr avlodi. - B.12.
[111] Дудник С. И. Парадигмы исторического мышления XX века: очерки по современной философии культуры. СПб.: Санкт-Петербургское философское общество. 2001.Б.132

2. Nazariy tahlillar hamda amaliy kuzatishlar natijasida o'quvchi-talabalarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning umumiy tuzilmasi (tayanch va xususiy kompetensiyalar tizimi) ishlab chiqildi. Natijada o'quvchi-talabalarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning nazariy shart-sharoitlari aniqlashtirildi.

3. Ta'lim sifatini oshirishga zamonaviy yondashuvlarning tatbiq etilishi uni sub'ektivlik, tarkib, tuzilish, rivojlanish, shaxs ehtiyojlarini muvofiqlashtirish kabi xususiyatlar orqali davlat va jamiyatni o'zaro bog'liqlikda insonparvarlik, uzluksizlik, taraqqiyot va demokratlashtirish g'oyalariga asoslangan zamonaviy ta'limning yangilanishi va rivojlanishini belgilab beradi.

4. Yot zararli g'oyalar tobora global xarakter kasb etmoqda. Ijtimoiy hayotning barcha sohalari ana shunday tahdidlar ostida qolayotgan ekan, strategik maqsadlarni, taktik vazifalarni amalga oshiradigan va puxta ishlab chiqilgan xalqaro institusional tizimni shakllantirish va ularni mavjud tahdidlarga qarshi zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish jamiyat oldidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

5. Ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan turli xil vayronkor g'oya va buzg'unchi mafkuralarning global o'zgarishlar davrida ta'siri tobora ortib borayotganligi ayon bo'lmoqda. Shunday ekan, yoshlarda mafkuraviy immunitet va profilaktika jarayonlarini yanada oshirish davr talabidir. Buning uchun oila, mahalla, ta'lim va boshqa nodavlat-notijorat tashkilotlar hamkorligini yanada kuchaytirish ma'naviyat samaradorligini oshirishimiz muhim omilidir.

# IV BOB. YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINI MA’NAVIY-MAFKURAVIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING ISTIQBOLLARI

## 4.1-§. Zamonaviy jamiyatda manipulyatsiyaning tizimli hodisa sifatida namoyon bo‘lishi va ularga qarshi chora-tadbirlar

Bugun global o‘zgarishlar ta’sir o‘tkazmagan biror sohani topish qiyin. Ayniqsa, insonlar o‘rtasidagi muloqotning kuchayib ketishiga bu jarayonning qo‘shayotgan hissasi haqida yetarlicha dalillar mavjud. G‘arb namunasidagi kapitalizmni qaror toptirish negizida aynan manipulyatsiyadan foydalanish maqsadi yashiringanini ham unutmaslik darkor. Bu haqda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta’kidlaydilar: “Globallashuv jarayonlari inson uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o‘zini o‘ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati turli yo‘llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti”[199]. Darhaqiqat, bunday illatlarning yuzaga chiqishiga ba’zi yoshlardagi xudbinlik, faqatgina o‘zinigina o‘ylash, bugungi kuni bilan yashash, o‘z manfaatlarini barcha narsalardan ustun qo‘yish kabilar sabab bo‘lmoqda. Bu esa o‘z do‘stlari, aka-ukalari, hatto, jamiyat, davlat, mamlakat manfaatlaridan ham ustun qo‘yish holatlaridir. Bunday qarashdagi yoshlar jamiyat qonun-qoidalari, milliy urf-odatlar, an’analarimizga nopisand qarashadi. Ayni paytda, manipulyatsiyaning xatarli jihati shundaki, u ichki parokandalik, shaxs yaxlitligining buzilishi, uning tashqi ta’sirga berilib ketishiga sabab bo‘ladi. Amerikalik psixolog R.Chaldini manipulyatsiyaning bir necha turlarini ajratib ko‘rsatadi: masalan, yordam so‘rash; sotuvchi, reklamasining xaridorga ta’siri; siyosiy targ‘ibot; bolalarni tarbiyalash va hakazo. Uning fikricha turli xil fondlar uchun mablag‘ yig‘uvchilar, ko‘chada savdo qiluvchilar, ishbilarmonlar, biznesmenlar, savdo agentlari, reklama xodimlari ham manipulyatsiyadan keng foydalanadi. Manipulyatsiyaning ta’siri va oqibatlari

---

[199] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi // Xalq so‘zi, 2021 yil 20 yanvar № 13.

MUNDARIJA

ANNOTATSIYA.......... 3
KIRISH .......... 6
I-BOB. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI VA UNI ZARARLI G'OYALARDAN HIMOYALASHNING G'OYAVIY-NAZARIY ASOSLARI
1.1. Yoshlarni ma'naviy tarbiyalash tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.......... 15
1.2. Globallashuv va yoshlarni ma'naviy tarbiyalashning zamonaviy konseptual masalalari.......... 27
1.3. Globallashuv sharoitida dunyoning mafkuraviy manzarasini aniqlashning ijtimoiy-ma'naviy omillari.......... 48
II-BOB. GLOBAL O'ZGARISHLAR DAVRIDA YOSHLARNI MA'NAVIY TARBIYALASH JARAYONLARINING DINAMIKASI VA EVOLYUTSIYASI
2.1. Global inqiroz shakllari, ularning o'zaro bog'liqligi .......... 59
2.2. Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o'zlikni anglash masalalari.......... 69
2.3. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish jarayonlarining dinamikasi va evolyutsiyasi.......... 77
III-BOB YOSHLARNI YOT VA ZARARLI G'OYALARDAN HIMOYALASHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI
3.1. Axborotlashgan jamiyatda yoshlarni zararli g'oyalardan himoyalashning muhim jihatlari.......... 110
3.2. Yoshlarni itimoiy tarmoqlardagi zararli g'oyalardan himoya qilishning g'oyaviy asoslari.......... 130
3.3. Yoshlarni ma'naviy yuksaltirishda axborot hurujlarining oldini olish omillari.......... 147
IV-BOB YOSHLARNI MA'NAVIY TARBIYALASHDA G'OYAVIY NEGIZLARIGA TAYANISHNING ISTIQBOLLARI
4.1. Zamonaviy jamiyatda manipulyatsiyaning tizimli hodisa sifatida namoyon bo'lishi va ularga qarshi chora-tadbirlar .......... 161
4.2. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish strategiyasi .......... 174
4.3. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda g'oyaviy negizlariga tayanishning istiqbollari.......... 185
XULOSA.......... 197
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.......... 202
ILOVALAR.......... 219

## СОДЕРЖАНИЕ


| | | |
|---|---|---|
| АННОТАЦИЯ | | 3 |
| ВВЕДЕНИЕ | | 6 |
| ГЛАВА I. | ИДЕЙНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ И ЕЕ ЗАЩИТЫ ОТ ВРЕДНЫХ ИДЕЙ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ | |
| 1.1. | Понятие духовного воспитания молодежи и его содержание | 15 |
| 1.2. | Глобализация и современные концептуальные вопросы духовного воспитания молодежи | 27 |
| 1.3. | Социально-духовные факторы определения идеологической картины мира в условиях глобализации | 48 |
| ГЛАВА II. | ДИНАМИКА И ЭВОЛЮЦИЯ ПРОЦЕССОВ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ | |
| 2.1. | Формы глобальных кризисов, их взаимосвязь | 59 |
| 2.2. | Вопросы национальности и национального самосознания в процессах глобализации | 69 |
| 2.3. | Динамика и эволюция процессов духовного подъема молодежи | 77 |
| ГЛАВА III. | ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЗАЩИТЕ МОЛОДЕЖИ ОТ ЧУЖДЫХ И ВРЕДНЫХ ИДЕЙ | |
| 3.1. | Важные аспекты защиты молодежи от вредных идей в информированном обществе | 110 |
| 3.2. | Идейные основы защиты молодежи от вредоносных идей в социальных сетях | 130 |
| 3.3. | Факторы профилактики информационных атак в духовном подъеме молодежи | 147 |
| ГЛАВА IV. | ПЕРСПЕКТИВЫ ОПОРЫ НА ИДЕЙНЫЕ ОСНОВЫ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ | |
| 4.1. | Проявление манипуляций как системного явления в современном обществе и меры противодействия им | 161 |
| 4.2. | Стратегии укрепления идеологического иммунитета в повышении морального духа молодежи | 174 |
| 4.3. | Перспективы опоры на идеологические основы повышения духовности молодежи | 185 |
| ЗАКЛЮЧЕНИЕ | | 197 |
| ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА | | 202 |
| ПРИЛОЖЕНИЕ | | 219 |

## CONTENT


| | | |
|---|---|---|
| ABSTRACT | | 3 |
| INTRODUCTION | | 6 |
| CHAPTER I. | IDEOLOGICAL AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF YOUTH SPIRITUALITY AND ITS PROTECTION FROM HARMFUL IDEAS IN THE ERA OF GLOBALIZATION | |
| 1.1. | The concept of spiritual education of youth and its content | 15 |
| 1.2. | Globalization and modern conceptual issues of spiritual education of youth | 27 |
| 1.3. | Socio-spiritual factors determining the ideological picture of the world in the context of globalization | 48 |
| CHAPTER II. | DYNAMICS AND EVOLUTION OF THE PROCESSES OF SPIRITUAL EDUCATION OF YOUTH IN THE ERA OF GLOBAL CHANGE | |
| 2.1. | Forms of global crises and their interrelation | 59 |
| 2.2. | Issues of nationality and national identity in the processes of globalization | 69 |
| 2.3. | Dynamics and evolution of the processes of spiritual upliftment of youth | 77 |
| CHAPTER III. | THE POSSIBILITIES OF USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES TO PROTECT YOUNG PEOPLE FROM ALIEN AND HARMFUL IDEAS | |
| 3.1. | Important aspects of protecting young people from harmful ideas in an informed society | 110 |
| 3.2. | The ideological foundations of protecting young people from malicious ideas on social networks | 130 |
| 3.3. | Factors of prevention of information attacks in the spiritual uplift of young people | 147 |
| CHAPTER IV. | THE PROSPECTS OF RELYING ON THE IDEOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE SPIRITUAL EDUCATION OF YOUNG PEOPLE | |
| 4.1. | The manifestation of manipulation as a systemic phenomenon in modern society and measures to counteract it | 161 |
| 4.2. | Strategies for strengthening ideological immunity in improving the morale of young people | 174 |
| 4.3. | The prospects of relying on the ideological foundations of improving the spirituality of young people | 185 |
| CONCLUSION | | 197 |
| REFERENCES | | 202 |
| APPENDIX | | 219 |

**TASHMETOV TUXTASIN XUDAYBERGANOVICH**

# GLOBAL O'ZGARISHLAR DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI VA UNI ZARARLI G'OYALARDAN HIMOYALASHNING DOLZARBLASHUVI

**FANIDAN**

**Monografiya**

Bosishga ruxsat etildi. 06.09.2024 y.
Qog`oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman garniturasida terildi.
Ofset uslubida oq qog`ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog`i 20.0, Adadi 100. Buyurtma № 56
Bahosi kelishuv asosida

"BROK CLASS SERVIS" MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar Zargarlik ko'chasi, Segizbayeva 10a.

ISBN 978-9910-9290-6-9